

BUXGALTERIYA HISOBIDA “XARAJAT” VA “TANNARX”  
TUSHUNCHALARINING MAZMUNI

Zebuniso Aliqulova

Sevinch Abdunazarova

*Iqtisodiyot fakulteti “Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yo’nalishi talabalari*

**Eshmuradov Ulug’bek Tashmuratovich**

*Ilmiy rahbar, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va bioteknologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “xarajat”, “tannarx” tushunchalarining mohiyati, o’zaro bog’liqligi, farqli xususiyatlari hamda ularga me’yoriy-huquqiy hujjatlar, iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflar va yondoshuvlarni o’rganish asosida “xarajat” va “tannarx” tushunchalariga ta’riflar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Xarajat, tannarx, ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, iqtisodiy yondoshuvlar.

**Аннотация:** В данной статье на основе изучения сущности, взаимозависимости и различных характеристик категорий “затраты” и “себестоимость”, а также определений и подходов экономистов и нормативных документов выделены категории “затраты” и “себестоимости”.

**Ключевые слова:** Затраты, себестоимость, производственный затраты, себестоимость продукции, экономические подходы.

Bugungi kunda zamonaviy nazariyada “xarajatlar” va “tannarx” tushunchalari xo’jalik yurituvchi subyekt faoliyatining buxgalteriya hisob-kitoblarida aks etadigan xarajatlar kategoriyalardan farq qiluvchi ba’zi bir jihatlarga ega. Buxgalteriya hisobi biznes jarayonlari faoliyatidagi xarajatlar va таннарх то’г’рисида iqtisodiy ma’lumotlarni obyektiv shakllantirish masalasi - buxgalteriya hisobi va uning usullari orqali amalga oshiriladi.

Sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarda, iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislarining “xarajat” va “tannarx” kategoriylarining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan ta’riflari va fikr-mulohazalari e’tiborga molik bo’lib, ushbu tushunchalarning mohiyatini aniq ta’riflash zarur bo’ladi.

Xarajatlar boshqaruvi hisobining asosiy obyekti hisoblanadi. Xarajatlar kategoriyasi keng tushuncha bo’lib, qaysi faoliyatga oidligi va qachon yuzaga kelganligidan qat’i nazar hisobga olinadigan xarajatlardir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib “xarajat” tushunchasining mohiyatini aniq ta’riflash zarur bo’ladi. Shu boisdan “xarajat” tushunchasini ta’riflashga iqtisodchi olimlarning yondashuvlarni ko’rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)**

“Xarajat” tushunchasining mohiyati bo‘yicha ta’riflar va yondashuvlar

Ta’riflar va yondoshuvlar	Ma’lumot manbasi
Xarajatlar – ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko’rsatiladigan xizmat hajmiga bog’liq bo’lgan chiqimlar, (masalan, materiallar, xomashyo sotib olish, xodimlar mehnatiga haq to’lash bilan bog’liq sarflar).	<a href="https://uz.wikipedia.org/wiki/Xarajatlar">https://uz.wikipedia.org/wiki/Xarajatlar</a>
Xarajatlar – tovarlarni ishlab chiqarish va muomala jarayonida turli resurslar (xom ashyo, materiallar, mehnat, xizmatlar, mablag’lar) sarflari bilan bog’liq chiqimlarning pul shaklidagi ifodasi	“O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” O’zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, 2000. - 392b.
Xarajat – hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o’rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari <a href="https://mf.uz/media/file/buhuchet/2021/msfo_proekti/26_04_2021/Uzb_GVT_BB2020_IAS01.pdf">https://mf.uz/media/file/buhuchet/2021/msfo_proekti/26_04_2021/Uzb_GVT_BB2020_IAS01.pdf</a>
Xarajatlar – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko’payishidir	O’zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos”(AV 09.09.2016 y. 475-1-son bilan ro’yxatga olingan)
Soliq to’lovchi tomonidan O’zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko’rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari xarajatlar deb e’tirof etiladi.	O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri) 305-moddasi. 30.12.2019//lex.uz
Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir	Karimov A., Islomov F., Avloqulov A.. Buxgalteriya hisobi.-T: «Sharq» NMAK, 2004. - 93 b.
«xarajat – ishlab chiqarish hajmi – foyda» ko’rsatkichlarining o’zaro bog’liqligida ifodalanadi	Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruvin hisobi. Toshkent – “G’ofur G’ulom” -2008. -49 b.
Xarajat – bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo’lib, daromadlar va xarajatlar kontseptsiyasiga ko’ra, o’sha davrning o’zida daromad keltirishi kerak	Ibragimov A.K., Ochilov I., Qo’ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruvin hisobi./O’quv qo’llanma.-T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2008. - 444 b.
Xarajatlar – muayyan davr oralig’ida sarflangan resurslarning pul o’lchovidagi qiymatidir	Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik.-Toshkent-“IQTISOD-MOLIYA”, 2019-738 b.
Xarajatlar – mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko’rsatish uchun sarflangan xarajatlar	Ro’zmetov B., Bekturdiev O., Yo’ldasheva Q., Matkarimov S. Tannarx kalkulatsiyasi. Toshkent, “ILM ZIYO”, 2006. -230 b.
Xarajatlar – mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko’rsatish bilan bog’liq bo’lgan sarflarning puldagi ifodasidir	Xasanov B.A., G’aniyev Z.U., Muxammedova D.A. Boshqaruvin hisobi –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 23 b.
Ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari.	Shodmonov Sh., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: “Zamin nashr”, 2021. -856 b. (363 b.)

Xarajat – xo'jalik yurituvchi subyekt maqsadiga erishish uchun mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi moddiy, nomoddiy, mehnat va boshqa sarflarning puldagi ifodasidir	Dusmuratov R.D, Tursunqulova G.B. Tannarx kalkulyatsiyasi. O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya" 2022, -24 b.
Xarajatlar – bu ko'zlangan maqsadlarga (mahsulot ishlab chiqarish, tovarlar xaridi, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish, loyihalarni amalga oshirish) erishish uchun sarflangan barcha resurslar qiymatining puldagi ifodasidir.	Toshnazarova D.S. Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi <a href="https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqlolar/4_Toshnazarova.pdf">https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqlolar/4_Toshnazarova.pdf</a>
Xarajatlar – bu korxonaning o'z faoliyati jarayonida foydalanadigan resurslar qiymatining bahosi	Носкова Н.Ю. Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в различных отраслях производственной деятельности: Учебное пособие Н.Ю.Носкова. -Ульяновск: УГТУ, 2009. - 124 с.
Xarajatlar – bu turli foydalanilgan resurslar - moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqalarning buxgalteriya hisobida qabul qilingan bahosidir.	Титова Е.А. Сущность и содержание статей затрат. г.Воронеж, //АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЭКОНОМИЧЕСКИХ НАУК. 135-140.

1-jadvalda keltirilgan ta'rif va yondashuvlarni e'tirof etgan holda "xarajat" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beramiz: "Xarajat – bu xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun sarflagan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari qiymatining puldagi ifodasidir".

Buxgalteriya hisobi biznes jarayonlarida ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarning umumiy tizimida tannarx ko'rsatkichi asosiy o'rin tutadi. Chunki tannarxnning tarkibi uni tashkil qiladigan tegishli xarajatlar yig'indisidan iboratdir. Tannarx mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish orqali mahsulot qiymatini yaratish bilan bog'liq xarajatlardir. Tannarx hisoblash xarajat normalari va normativlarining ilmiy asoslanganligini baholash, ularning dinamikasini nazorat qilish va tannarxni pasaytirish rezervlarini aniqlash hamda mahsulotlarning bozor bahosini belgilash va uni tezkor qayta ko'rib chiqishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli, "Tannarx" tushunchasiga ham ilmiy va o'quv-uslubiy manbalardagi yondashuvlarni tahlil qilamiz (2-jadval).

## 2-jadval

### "Tannarx" tushunchasi iqtisodiy mazmuni bo'yicha ta'rif va yondashuvlar

Tannarx, mahsulot tannarxi — korxonaning mahsulot ishlab chiqarish. va uni sotish hamda ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun qilgan jami joriy xarajatlarining pul shaklidagi ifodasi	<a href="https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/tannarx-uz/">https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/tannarx-uz/</a>
Ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi	Shodmonov Sh., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: "Zamin nashr", 2021. -856 b. (363 b.)
Mahsulot tannarxi – mahsulotlar ishlab chiqarishiga sarflangan bevosita xarajatlarning yig'indisi	Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruvin hisobi. Darslik –Toshkent Alisher Navoiy nomidagi

	O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2003-260 b.
Tannarx - xo'jalik ishlab chiqarish va moliya faoliyatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichidir	Dusmuratov R.D, Menglikulov B.Yu. Qishloq xo`jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. T.: "Fan va texnologiya", 2014. 392 b.
Mahsulot tannarxi - bu korxonaning ishlab chiqarish va mahsulot sotish uchun amalga oshirilgan jami xarajatlarning pul ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, uning negizida ishlab chiqarishning muomala xarajatlari yotadi	Махкамбоев А.Т., Абдувохидов Ф.Т., Сотиболдиева Д.А., Шодиев Э.Т. Калкуляция себестоимости: Учебное пособие. -Т: "ILM ZIYO", 2012. - 208 с.
Tannarx - mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasi	Ro'zmetov B., Bekturdiev O., Yo'ldasheva Q., Matkarimov S. Tannarx kalkulatsiyasi. Toshkent, "ILM ZIYO", 2006.-230 b.
Mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxi - bu zaxiralarni qayta ishlash jarayonida foydali bo'lgan va tayyor mahsulotlarning qiymatiga olib boriladigan, xizmatlar va ishlarni bajarish jarayonida uning qiymatiga qo'shiladigan bevosita va bilvosita ishlab chiqish xarajatlaridir.	Toshnazarova D.S. Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi <a href="https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4_Toshnazarova.pdf">https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4_Toshnazarova.pdf</a>
Mahsulot tannarxi - bu korxonaning pul ko'rinishidagi jami xarajatlari bo'lib, uning negizida mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda ishlab chiqarishning muomala xarajatlari yotadi	Керимов В.Е. Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в отдельных отраслях производственной сферы. - Москва, 2005. - 246 с.
Tannarx (angl. cost price) - korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotishi uchun amalga oshirilgan joriy chiqimlarning qiymatdagi baholanishidir	Себестоимость / Кузнецов О.В. // Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М.: Большая российская энциклопедия, 2004—2017
Tannarx - bu xarajatlar bo'lib, qaysiki korxona tovarlarni tayyorlash va uni davomiy sotish qilish barobarida amalga oshiradi	Лунин П.А. Учет затрат и калькулирование себестоимости научно-технической продукции: На примере отрасли "Наука и научное обслуживание" <a href="https://www.dissercat.com/content/uchet-zatrat">https://www.dissercat.com/content/uchet-zatrat</a>
Tannarx - bu tashkilotning butun xarajatlari bo'lib, qaysiki mahsulot ishlab chiqarish yoki ishlarni bajarish, shuningdek xizmatlar ko'rsatishda yuzaga keladi	Что такое себестоимость и как ее рассчитать: типы, виды, структура и формирование себестоимости <a href="https://kakzarabativat.ru/nachinayushhim-predprinimateleyam/chto-takoe-sebestoimost-kak-rasschitat/">https://kakzarabativat.ru/nachinayushhim-predprinimateleyam/chto-takoe-sebestoimost-kak-rasschitat/</a>
	Журнал "Финансовый директор" // <a href="https://www.fd.ru/articles/159104-sebestoimost-tipy-struktura-formirovanie">https://www.fd.ru/articles/159104-sebestoimost-tipy-struktura-formirovanie</a>

2-jadvalda keltirilgan ta'rif va yondashuvlarini o'rgangan holda "Tannarx" tushunchasiga quyidagicha ta'rifni berdik: "Tannarx - bu bir birlik mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatiish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasidir".

Ushbu tahlillardan xulosa qilish mumkinki, o'rganilayotgan ko'rsatkichlarga umumiqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan ta'riflarni bir-biridan ajratish kerak. Ularni tizimlashtirishga zarurat mavjud. Xalqaro tajribalarda sotish bilan bog'liq xarajatlar mahsulot tannarxiga emas, balki operatsion xarajatlar tarkibiga kiritilgan. Ushbu tahlillardan kelib chiqib, biz xarajatlar kategoriysi tannarx kategoriyasidan kengroq ma'noni anglatadi, ya'ni xarajatlar tannarxni ham o'z ichiga oladi degan fikrga qo'shilgan holda xarajatlar va tannarx tushunchalariga umumiqtisodiy, moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi maqsadlarida alohida ta'riflar keltirish lozim, deb hisoblaymiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri). 30.12.2019//lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldag'i 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom//lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos" (AV 09.09.2016 y. 475-1-son bilan ro'yhatga olingan).
4. Alikulov A.I. Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari (monografiya). – T.: "Fan va texnologiya", 2011, - 188 b.
5. Dusmuratov R.D, Tursunqulova G.B. Tannarx kalkulyatsiyasi. O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya" 2022, -24 b.
6. Dusmuratov R.D, Menglikulov B.Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. T.: "Fan va texnologiya", 2014. 392 b.
7. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A.. Buxgalteriya hisobi.-T: «Sharq» NMAK, 2004.-93 b.
8. Ibragimov A.K., Ochilov I., Qo'ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi./O'quv qo'llanma.-T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2008. - 444 b.
9. Керимов В.Е. Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в отдельных отраслях производственной сферы. - Москва, 2005. - 246 с.
10. Лунин П.А. Учет затрат и калькулирование себестоимости научно-технической продукции: На примере отрасли "Наука и научное обслуживание"  
<https://www.dissercat.com/content/uchet-zatrav>
11. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari  
[https://mf.uz/media/file/buh-uchet/2021/msfo\\_proekti/26\\_04\\_2021/Uzb\\_GVT\\_BB2020\\_IAS01.pdf](https://mf.uz/media/file/buh-uchet/2021/msfo_proekti/26_04_2021/Uzb_GVT_BB2020_IAS01.pdf)
12. Махкамбоев А.Т., Абдувохидов Ф.Т., Сотиболдиева Д.А., Шодиев Э.Т. Калкуляция себестоимости: Учебное пособие. -Т: "ILM ZIYO", 2012. - 208 с.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-7 ISSUE-4 (30-April)**

---

13. Носкова Н.Ю. Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в различных отраслях производственной деятельности: Учебное пособие Н.Ю.Носкова. -Уляновск: УГТУ, 2009. - 124 с.
14. Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi. Toshkent – “G’ofur G’ulom” - 2008. -49 b.
15. Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik.-Toshkent-“IQTISOD-MOLIYA”, 2019-738 b.
16. Ro’zmetov B., Bekturdiev O., Yo’ldasheva Q., Matkarimov S. Tannarx kalkulatsiyasi. Toshkent, “ILM ZIYO”, 2006.-230 b.
17. Себестоимость / Кузнецов О.В. // Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М.: Большая российская энциклопедия, 2004—2017
18. Toshnazarova D.S. Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi  
[https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4\\_Toshnazarova.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4_Toshnazarova.pdf)
19. Титова Е.А. Сущность и содержание статей затрат. г.Воронеж, //АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЭКОНОМИЧЕСКИХ НАУК. 135-140.
20. Хасанов Б.А. и др. Калькулирование себестоимости продукции (Учебное пособие). – Т.: “Fan va texnologiya”, 2008 г. – 160 с.
21. Xasanov B.A., G’aniyev Z.U., Muxammedova D.A. Boshqaruv hisobi –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 23 b.
22. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi (darslik, 2 nashr). –Т.: Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 312 b.
23. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik –Toshkent Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2003. -260 b.
24. Shodmonov Sh., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. – Т.: “Zamin nashr”, 2021. -856 b. (363 b.)
25. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” O’zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, 2000. – 392 b.
26. Что такое себестоимость и как ее рассчитать: типы, виды, структура и формирование себестоимости <https://kakzarabativat.ru/nachinayushhim-predprinimateleyam/chto-takoe-sebestoimost-kak-rasschitat/>
27. Журнал “Финансовый директор” //<https://www.fd.ru/articles/159104-sebestoimost-tipy-struktura-formirovaniye>
28. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/>
29. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). Evaluation and accounting of material working cash in agroclasters as an object of accounting. Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 1), 102-109.
30. Eshmuradov, U. T. The methodology of the primary account sales of agricultural products. In CONSTRUCTII IDENTITARE-LITERATURA SI STUDII CULTURALE (pp. 113-118). Editura Vasiliana’98.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-7 ISSUE-4 (30-April)**

31. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1).
32. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. SEA-Practical Application of Science, (5), 649-654.
33. ESHMURADOV, U. T., & ALIKULOV, A. I. (2014). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF SALES AGRICULTURAL PRODUCTS ON FARM ENTERPRISES. SEA: Practical Application of Science, 2(3).
34. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). Agroklasterlar sotish jarayonlarida segmentar hisobotlarning ahamiyati. Научный Фокус, 1(7), 790-795.
35. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. MASTERS, 1(1), 112-118.
36. Eshmuradov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.
37. Tashmuratovich, E. U. (2023). ACCOUNTING AND AUDIT IMPROVEMENT OF READY SALE PRODUCTS IN AGROCLUSTER. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 649-657.
38. Ortiqaliev, A. B. (2022). CHORVACHILIK YO 'NALISHIDAGI FERMER XO 'JALIKLARIDA SOTISH HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1155-1159.
39. Olimjanovna, J. D., & Tashmuratovich, E. U. (2024). CONCEPT AND ACCOUNTING OF CAPITAL INVESTMENTS IN AGRICULTURAL CLUSTERS. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 182-188.
40. Tashmuratovich, E. U. B., & Xaitovich, Y. S. (2024). G 'ALLACHILIK KLASTERLARIDA TRANSFERT BAHO BELGILASHNI USULLARI TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(01), 133-141.
41. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. MASTERS, 1(1), 127-131.
42. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ВА РЕАЛИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИ, УЛАРНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАЛҚИНИ. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 861-867.
43. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). Improving the analysis of financial results in agroclusters. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(9), 310-316.
44. Alikulov, A., & Abduraxmonov, F. (2023). Qishloq xo'jalik korxonalarida yakuniy moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 174-181.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)**

---

45. Ismatovich, A. A. (2023). THEORETICAL BASIS OF ORGANIZING THE ACCOUNT OF COMMODITY MATERIAL ASSETS IN AGROCLUSTERS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS. MASTERS, 1(1), 132-137.
46. Jo'raeva, D. O., & Abdushukurov, X. B. (2023). UZUMCHILIK PLANTATSIYALARINI BARPO ETISH XARAJATLARI HISOBINI TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 690-699.
47. Alikulov, A. (2023). Organizational and methodological bases of accounting the costs of establishing vineyards.
48. Alikulov, A., & Razzoqo, A. (2023). PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI TAHLIL QILISH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 74-83.
49. Baxodirovich, T. J., & Ismatovich, A. A. (2023). IMPROVING THE ACCOUNT OF FINANCIAL RESULTS ACCORDING TO INTERNATIONAL STANDARDS. MASTERS, 1(1), 138-143.
50. Rabbimovna, R. U., Baxtiyorovna, N. G., & Muxammadkulovna, Y. D. (2024). AGROKASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKAR HISABI VA AUDITINI TAKOMILKASHTIRISH. WORLD OF SCIENCE, 7(3), 140-146.
51. Azimjonovich, R. N., Maxmudovich, U. B., & Abdusamatovich, J. J. (2024). MAHALLABAY ISHLASH TIZIMI ORQALI XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTRIRISH ASOSIDA ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 207-213.
52. Azimjonovich, R. N., Abdusamatovich, J. J., & Maxmudovich, U. B. (2024). MAISHIY XIZMAT KO 'RSATISH SOHALARIGA BERILGAN IMTIYOZLAR JOZIBADORLIGINI NAZARIY ASOSLASH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 214-221.
53. O'G'Li, A. J. F., Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., & Baxtiyorovna, N. G. (2024). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHDA "MAHALLABAY" ISHLASH TIZIMI SAMARADORLIGI TAHLILI. WORLD OF SCIENCE, 7(2), 114-125.
54. Ibodullayevich, O. R. F., & Turdibayevich, K. R. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. MASTERS, 1(1), 119-126.
55. Khasanov, B. A., Eshboev, U. T., Hasanova, R. B., Mukumov, Z. A., Alikulov, A. I., & Djumanova, A. B. (2019). Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. International Journal of Advanced Science and Technology, 28(14), 42-48.